

## TRANSPORT MASALASI VA UNING TURLI SOHALARDAGI AHAMIYATI

Sotvoldiyev Akmal Ibroximovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Oliy va amaliy matematika kafedrasи dotsenti, PhD

[akmal.sotvoldiyev@mail.ru](mailto:akmal.sotvoldiyev@mail.ru)

+998909508517

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada transport masalalarining nazariy asoslari, ularning turli sohalardagi qo'llanilishi va zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyasi tahlil qilinadi. Transport masalalari chiziqli dasturlash, graf nazariyasi va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib, iqtisodiyot, logistika, shaharsozlik, sog'lioni saqlash va raqamli kommunikatsiya sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, transport masalasi bo'lajak iqtisodchi-mutaxassislar uchun nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, resurslarni optimal taqsimlash, logistika jarayonlarini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladigan muhim vositalardan biri sifatida o'r ganiladi.

**Kalit so'zlar:** transport, logistika, taqsimot, potensiallar, kontur, optimallashtirish.

### I. KIRISH

Iqtisodiyot fanining zamonaviy rivojlanishida matematik modellashtirish va programmalashtirish kursi katta o'r in tutadi. Transport masalalari – bu mahsulotlar, xomashyolar va xizmatlarni bir joydan ikkinchi joyga optimal ravishda yetkazib berish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan matematik va iqtisodiy model bo'lib, u ko'plab sohalarda qo'llaniladi. Ushbu masalalar transport infratuzilmasining samaradorligini oshirish, tashish xarajatlarini minimallashtirish, yo'nalishlarni optimallashtirish va vaqt ni tejash kabi muhim jihatlarni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy dunyoda transport masalalarining ahamiyati ortib bormoqda, chunki global savdo, shaharsozlik, logistika, tibbiyot va hatto raqamli ma'lumotlar uzatish jarayonlari ham transport tamoyillariga asoslangan. Shaharlarning rivojlanishi, avtomobillar va jamoat transporti oqimining o'sishi, ekologik muammolar, hamda talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurati transport masalalarini yanada dolzarb holga keltirmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, transport masalalarini hal qilish uchun turli algoritmlar va modellar ishlab chiqilgan bo'lib, ular orasida chiziqli dasturlash, graf nazariyasi va sun'iy intellekt texnologiyalari asosiy o'r in tutadi. Bu usullar yirik korporatsiyalar, davlat muassasalari va shaxsiy biznes tomonidan samarali qo'llanilmoqda.

Ushbu maqolada transport masalalarining nazariy asoslari, ularning turli sohalarda qo'llanilishi va real hayotdagi amaliy misollar tahlil qilinadi. Shumindek, transport masalalarining qanchalik keng qamrovli ekanligi va ular orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlari yoritiladi.

### II. ADABIYOTLAR TAHLILI

Transport masalalari bo'yicha turli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularning aksariyati matematik optimallashtirish usullariga asoslanadi. Dansigning

Simpleks usuli va Vogel taxminiy usuli transport masalalarini yechishda eng samarali algoritmlar sifatida tan olingen. Shuningdek, potensiallar usuli – transport masalasini yechish uchun qo'llangan birinchi aniq usul bo'lib, u 1949-yilda rus olimlari L.V.Kantorovich va M.K.Gavurin tomonidan yaratilgan. Bu usulning asosiy g'oyasi transport masalasiga moslashtirilgan simpleks usuldan iborat bo'lib, birinchi marta chiziqli programmalashtirish masalalarini yechish usullariga bog'liq bo'lman holda tasvirlangan. Keyinroq, xuddi shunga o'xshash usul Amerikalik olim Dansig tomonidan yaratildi. Dansig usuli chiziqli programmalash-tirishning asosiy g'oyalariga asoslangan bo'lib, Amerika adabiyotida bu usul modifitsirlangan taqsimot usuli deb yuritiladi.

Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt (AI) va katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) tahlili transport tizimlarini yanada samarali boshqarishga yordam beradi. Masalan, Google Maps va Waze kabi navigatsiya tizimlari real vaqt rejimidagi transport oqimini tahlil qilish uchun AI va mashinani o'rganish usullaridan foydalanadi.

Bundan tashqari, transport masalalarining iqtisodiy tahlili bo'yicha ishlar ham mavjud bo'lib, Samuelson va Kupmans kabi iqtisodchilar transport xarajatlari va logistika optimallashtirishining umumiyligi iqtisodiyotga ta'sirini tadqiq etganlar.

### III. ASOSIY QISM

Transport masalasi – bu resurslar (yuklar, mahsulotlar yoki boshqa materiallar)ni bir nechta manbalardan (masalan, omborlar, ishlab chiqarish korxonalari) bir nechta manzilga (mijozlarga, talab punktlariga) yetkazib berish jarayonini optimallashtirish masalasidir. Bunday masalada asosiy maqsad – bu jarayonni minimal xarajat bilan amalga oshirishdir.

Transport masalasi quyidagicha ifodalanadi:

Manbalar (supply): bu omborlar yoki ishlab chiqarish joylari bo'lib, ular resurslarni taqdim etadi.

Talab punktlari (demand): bu resurslarni talab qilayotgan joylar (masalan, savdo nuqtalari, iste'molchilar).

Transport xarajatlari: manbalar va talab punktlari orasidagi masofalar va ular bilan bog'liq transport xarajatlari.

Bu kabi masalalar, asosan, quyidagi omillarga bog'liq:

- tashish xarajatlari (masofa va yoqilg'i sarfi);
- transport vositalarining sig'imi;
- talab va taklif muvozanati;
- vaqt omili.

Ko'pincha bu masalalarni yechish uchun Simpleks usuli, Vogel taxminiy usuli, Shimal usuli kabi optimallashtirish algoritmlaridan foydalaniladi.

**Transport masalasining qo'yilishi va uning matematik modeli.** Faraz qilaylik,  $m$  ta  $A_i$  ta'minotchilarda  $a_i$  miqdordagi bir xil mahsulotni  $n$  ta  $B_j$  iste'molchilarga mos ravishda  $b_j$  miqdordan yetkazib berish talab qilinsin. Har bir  $i$

ta'minotchidan har bir  $j$  iste'molchiga bir birlik mahsulotni tashishga sarf qilinadigan yo'l xarajati  $c_{ij}$  pul birligini tashkil qilsin.

Mahsulot tashishning shunday rejasini tuzish kerakki, ta'minotchilardagi barcha mahsulotlar olib chiqib ketilsin, iste'molchilarning barcha talablari qondirilsin va shu bilan birga yo'l xarajatlarining umumiyligi qiymati eng kichik bo'lsin.

Masalaning matematik modelini tuzish uchun  $i$  ta'minotchidan  $j$  iste'molchiga yetkazib berish uchun rejalashtirilgan mahsulot miqdorini  $x_{ij}$  orqali belgilaymiz. U holda masalaning shartlarini quyidagi jadval ko'rinishda yozish mumkin:

1-jadval

Ta'minotchilar	Iste'molchilar				Zahiralar miqdori
	$B_1$	$B_2$	...	$B_n$	
$A_1$	$c_{11}$ $x_{11}$	$c_{12}$ $x_{12}$	...	$c_{1n}$ $x_{1n}$	$a_1$
$A_2$	$c_{21}$ $x_{21}$	$c_{22}$ $x_{22}$	...	$c_{2n}$ $x_{2n}$	$a_2$
...	...	...	...	...	...
$A_m$	$c_{m1}$ $x_{m1}$	$c_{m2}$ $x_{m2}$	...	$c_{mn}$ $x_{mn}$	$a_m$
Talablar miqdori	$b_1$	$b_2$	...	$b_n$	

Bunda xarajatlarning umumiyligi qiymati

$$Z = \sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n c_{ij} x_{ij}$$

ifoda bilan aniqlanadi.

Masalaning matematik modeli quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\begin{cases} \sum_{j=1}^n x_{ij} = a_i, & i = \overline{1, m} \\ \sum_{i=1}^m x_{ij} = b_j, & j = \overline{1, n} \end{cases} \quad (1)$$

chiziqli tenglamalar sistemasining

$$x_{ij} \geq 0 \quad (i = \overline{1, m}; \quad j = \overline{1, n}) \quad (2)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi shunday yechimini topish kerakki, bu yechim

$$Z = \sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n c_{ij} x_{ij} \quad (3)$$

chiziqli funksiyaga eng kichik qiymat bersin.

1-jadvaldan va masalaning modelidan  $0 \leq x_{ij} \leq \min(a_i, b_j)$  tengsizlikning bajarilishi ko‘rinib turibdi.

Transport masalalari ikki turga ajratib o‘rganiladi:

Agar mahsulotga bo‘lgan talab taklifga teng, ya’ni  $\sum_{i=1}^m a_i = \sum_{j=1}^n b_j$  tenglik o‘rinli bo‘lsa, u holda bunday masala yopiq modelli transport masalasi deyiladi.

Agar mahsulotga bo‘lgan talab taklifga teng bo‘lmasa, ya’ni  $\sum_{i=1}^m a_i \neq \sum_{j=1}^n b_j$  munosabat o‘rinli bo‘lsa, u holda bunday masalalar ochiq modelli transport masalasi deyiladi.

(1)-(3) masala uchun quyidagi teorema o‘rinli.

**Teorema.** Talablar hajmi takliflar hajmiga teng bo‘lgan istalgan transport masalasining optimal yechimi mavjud bo‘ladi.

**1-misol.** Aytaylik, bir korxona ikki ombordan mahsulotlarni uchta do‘konga yetkazib berish kerak. Har bir ombordan ma’lum miqdorda mahsulot mavjud va har bir do‘kon ma’lum miqdorda mahsulotga talab bildirmoqda. Har bir yo‘nalishda transport xarajatlari turlicha va bizning vazifamiz bu xarajatlarni minimallashtirishdan iborat.

### 2-jadval

Istemolchi Ta’mnotchi	1-do‘kon	2-do‘kon	3-do‘kon	Zahira
A ombor	5 so‘m	8 so‘m	6 so‘m	<b>50 tonna</b>
B ombor	4 so‘m	7 so‘m	5 so‘m	<b>70 tonna</b>
Talab	<b>60 tonna</b>	<b>40 tonna</b>	<b>20 tonna</b>	

Maqsadimiz xarajatlarni minimallashtirish uchun qaysi ombordan qaysi do‘konga qancha mahsulot yetkazish kerakligini aniqlashdir.

Bu masalani yechishda, transport masalasining matematik modelini tuzib, chiziqli dasturlash usulidan foydalanamiz. Misol uchun, A omboridan 1-do‘konga yetkaziladigan mahsulot miqdorini  $x_1$ , A omboridan 2-do‘konga yetkaziladigan mahsulotni  $x_2$  deb belgilaymiz. Bunday tarzda barcha yo‘nalishlar uchun o‘zgaruvchilarni kiritib, maqsadni (xarajatlarni minimallashtirish) aniqlaymiz.

1. Dastlab boshlang‘ich reja qurib olamiz. Avvalo bu masala ochiq yoki yopiq molelli ekanligini tekshirib olamiz:

$$\sum_{i=1}^m a_i = 60 + 40 + 20 = 120; \quad \sum_{j=1}^n b_j = 50 + 70 = 120 \Rightarrow \sum_{i=1}^m a_i = \sum_{j=1}^n b_j$$

Endi minimal harajatlar usulidan foydalanib, masalaning boshlang‘ich rejasini qurib olamiz:

### 3-jadval

Istemolchi Ta’mnotchi	1-do‘kon	2-do‘kon	3-do‘kon	Zahira
A ombor	5 —	8 40	6 10	<b>50 tonna</b>
B ombor	4 60	7 —	5 10	<b>70 tonna</b>

Talab	60 tonna	40 tonna	20 tonna	
-------	----------	----------	----------	--

Daemak,  $Z = 5 \cdot 0 + 8 \cdot 40 + 6 \cdot 10 + 4 \cdot 60 + 7 \cdot 0 + 5 \cdot 10 = 670$ .

2. Potensiallar qurish usuli orqali bu masalaning optimal yechimini topamiz. Bunda  $m + n - 1 = 3 + 2 - 1 = 4$ . Demak, potensiallarni qurish mumkin ( $U + V = c_{ij}$  band kataklar bo'yicha):

4-jadval

Talab Zahira	60 tonna	40 tonna	20 tonna	$U$
50 tonna	5	8	6	0
70 tonna	4	7	5	-1
$V$	5	8	6	

3. Optimallik shartini hisoblaymiz ( $\Delta_{ij} = U + V - c_{ij}$  bo'sh kataklar bo'yicha):

5-jadval

Talab Zahira	60 tonna	40 tonna	20 tonna	$U$
50 tonna	5	8	6	0
70 tonna	4	7	5	-1
$V$	5	8	6	

4. Bundan ko'rindiki,  $\Delta_{ij} \leq 0$  bo'lganligi sababli masalaning optimal yechimi:

$$X_{opt} = \begin{pmatrix} 0 & 40 & 10 \\ 60 & 0 & 10 \end{pmatrix}, \quad Z_{\min} = 670$$

Xulosa shundan iboratki, A ombordan 2 va 3-do'konlarga mos ravishda 40 va 10 tonna; B ombordan esa, 1 va 3-do'konlarga mos ravishda 60 va 10 tonna mahsulot yetkazib berilsa, transport harajatining minimal qiymati 670 so'm bo'ladi.

**2-misol. Logistika tizimini optimallashtirish.** Bir ishlab chiqarish korxonasi o'z mahsulotlarini yetkazib berish uchun bir nechta omborlardan foydalanadi va har bir ombor o'z transport tarmog'iga ega. Korxona mahsulotlarini yetkazib berishda eng kam xarajatlarni minimallashtirishni istaydi. Bunday masalada transport masalasini yechishda, har bir omborning xarajatlarini va masofalarini hisobga olish kerak. Masalan,

- Manbalar (omborlar): Ombor 1, Ombor 2
- Talab punktlari (do'konlar): Do'kon 1, Do'kon 2, Do'kon 3
- Xarajatlar (tonnada): Ombor 1 → Do'kon 1: 4 so'm, Ombor 1 → Do'kon 2: 7 so'm, va hokazo.

Bu masalada ham chiziqli dasturlash yordamida eng optimal transport yo‘nalishlarini aniqlash mumkin.

### **Transport masalalarining turli sohalarda qo‘llanilishi:**

**1. Iqtisodiyot va logistika.** Iqtisodiyot va logistika sohasida transport masalalari mahsulot va xomashyolarni optimal yetkazib berish tizimlarini yaratishga yordam beradi. Masalan, Amazon va Alibaba kompaniyalari logistika jarayonlarini sun’iy intellekt yordamida optimallashtirib, mahsulotlarni eng qisqa yo‘l orqali yetkazib berish tizimini yaratgan.

**2. Shaharsozlik va transport tizimi.** Shaharlarning transport infratuzilmasini optimallashtirish katta ahamiyatga ega. Bu jarayonda yo‘l harakati oqimini samarali boshqarish, tirbandliklarni kamaytirish va ekologik tozalikka e’tibor beriladi. Masalan, Singapur shahrida aqlli transport tizimi yo‘l harakati oqimini tahlil qilib, real vaqt rejimida tirbandliklarni kamaytirishga yordam beradi.

**3. Energetika sektori.** Elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste’mol qilish o‘rtasidagi balansni optimallashtirishda transport masalasi asosida optimallashgan yechimlar topiladi. Masalan, bir necha elektr stantsiyalaridan turli shaharlarga yoki sanoat korxonalariga energiya yetkazib berish uchun eng kam xarajat bilan taqsimlash zarur. Bunday masalalarda transport masalasi modelini qo‘llash orqali energiya taqsimoti samarali boshqarilishi mumkin.

**4. Sog‘lijni saqlash tizimi.** Sog‘lijni saqlash tizimida tibbiy resurslar, dorilar va boshqa muhim materiallarni kasalxonalarga taqsimlashda transport masalasini yechish metodlari keng qo‘llaniladi. Masalan, epidemiyalar yoki favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganida, tibbiy yordamni zarur hududlarga eng tez va samarali tarzda yetkazib berish uchun transport masalasi asosida optimallashtirish usullari qo‘llaniladi.

**5. Jamoat transporti va yo‘lovchi tashish.** Shaharlararo va ichki transport tizimlarini rejalashtirishda transport masalalari yordamida eng samarali yo‘nalishlar va vaqt ni optimallashtirish mumkin. Bu usul yordamida jamoat transportining harakati va yo‘lovchi oqimlarini boshqarish yanada samarali va arzon bo‘ladi.

**6. Logistika va ta’midot zanjiri boshqaruvi.** Transport masalasi ta’midot zanjiri boshqaruvida ham keng qo‘llaniladi. Masalan, ishlab chiqarish korxonalariga xom ashyo yetkazib berishda yoki tayyor mahsulotlarni xaridorga yetkazishda transport masalasi yordamida eng qulay va iqtisodiy samarali yo‘llar aniqlanadi.

**7. Internet va telekommunikatsiya.** Transport masalalari nafaqat fizik tashishda, balki raqamli ma’lumotlar uzatish tizimlarida ham ishlatiladi. Masalan, Google va Facebook ma’lumotlar markazlari ma’lumotlarni foydalanuvchilarga eng qisqa yo‘nalish bo‘yicha yetkazish uchun grafik nazariyasidan foydalanadi.

## **IV. XULOSA**

Transport masalasi iqtisodiyotning turli sohalarida muhim ahamiyatga ega. Uning yordamida resurslar, mahsulotlar yoki xizmatlar optimal tarzda taqsimlanadi va harajatlar kamaytiriladi. Matematik programmalashtirish, ayniqsa, chiziqli dasturlash metodlari, bu masalalarni yechishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Hamma sohalarda, xususan logistika, energetika, sog‘lijni saqlash, va jamoat transportida

transport masalalarini optimallashtirish orqali ko‘plab iqtisodiy foyda olish mumkin. Shuningdek, zamonaviy iqtisodiyot, shaharsozlik, tibbiyat va telekommunikatsiya sohalarida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning optimallashtirilishi samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Matematik modellash, algoritmik yondashuvlar va sun’iy intellekt texnologiyalari transport tizimlarini yanada rivojlanishda muhim vosita hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, transport masalalarini hal qilish uchun qo‘llaniladigan ilg‘or usullar iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ekologik muammolarni kamaytirish va umumiylar infratuzilmanni yaxshilashga yordam beradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va AI yechimlarining keng joriy etilishi kelajakda transport tizimlarining yanada rivojlanishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, transport masalasi zamonaviy iqtisodiyotda kompleks yondashuvni talab qiluvchi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Uni chuqur o‘rganish va optimallashtirish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish iqtisodiy samaradorlik va barqaror rivojlanishga erishishda hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, iqtisodchi-mutaxassislarni transport va logistika masalalarini matematik modellashtirish va optimallashtirish usullari asosida hal qilishga yo‘naltirish zamonaviy boshqaruv va biznes yuritishning ajralmas qismi sanaladi.

## V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TO‘YXATI

1. Griva I., Stephen G. Linear and nonlinear optimization // – 2009. 766 p.
2. Кремер Н.И. Высшая математика для экономистов // Учебник. – ЮНИТИ-ДАНА. – 2010. – 479 с.
3. Татарникова О.В., Швед Е.В., Шершнев В.Г. Высшая математика для экономистов // Учебник. – Кнорус. – 2021. – 630 с.
4. Xashimov A.R., Sotvoldiyev A.I., Xujaniyozova G.S., Xolbozorov Q.X. Iqtisodchilar uchun matematika. 1-modul (chiziqli algebra asoslari va uning iqtisodiyotga tatbiqlari) // Darslik. 2022. T.: “Nihol-print” OK. 2022. 316 bet.
5. Хашимов А.Р., Сотвoldиев А.И. Иқтисодий жараёнларни математик моделлаштиришнинг моҳияти ва усувлари // Молия илмий журнали. – 2021. – № 3. 98-105 бетлар.
6. Xidirov N.G., Sotvoldiyev A.I. Dinamik modellarni iqtisodiyotda qo‘llanilishi. Science and education scientific journal // – 2022. – Vol. 3, – No. 3. – pp. 1-10.
7. Sotvoldiyev A.I., Yuldashev S.A. Matematik modellashtirish va matematik model qurish metodlari // Pedagog respublika ilmiy jurnali. – 2023. – 5-son. 44-50 betlar.
8. Sotvoldiyev A.I. Mathematics of economic processes nature and methods of modeling. Science and education scientific journal // – 2023. – Vol. 4, – No. 3. – pp. 829-835.
9. Sotvoldiyev A.I., Kamoldinov S.M. Iqtisodiy masalalarni chiziqli dasturlash masalasiga keltirish va simpleks usulda yechish. Wire Insights: Journal of Innovation Insights // – 2023. – Vol. 1, – Issue 7. – pp. 14-21.

10. Sotvoldiyev A.I., Chorshanbiyev A. Iqtisodiy jarayonlarning modellari: nazariy yondashuvlar va asoslashlar // "TADQIQOTLAR" jahon ilmiy-metodik jurnali. – 2024. – Vol. 49, – Issue 1. – pp. 67-76.